

**Farg‘ona davlat universiteti filologiya
fakulteti tilshunoslik kafedrasi
professori, filologiya fanlari doktori
(DSc) N.Umarova taqrizi ostida**

**Abdullayeva Mushtariybegim Murodiljon qizi
FDU magistranti
mushtariybegim@gmail.ru**

SHAVKAT RAHMON SHE’RLARIDA ANAFORA VA EPIFORANING QO’LLANILISHI

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy matnda qo‘llaniladigan takrorning asosiy turlari sanalgan anafora va epiforaning vazifasi yoritib berilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Shavkat Rahmon she’rlari olingan bo‘lib, uning poeziyasida uchraydigan anafora va epiforalar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Anafora, epifora, stilistik uslub, she’riyat, emotsionallik, ohang, gap bo‘laklari, ega, kesim, to‘ldiruvchi, hol, estetik quvvat, musiqiylik.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНАФОРЫ И ЭПИФОРЫ В СТИХАХ ШАВКАТА РАХМАНА

Аннотация: В данной статье освещается функция анафоры и Эпифоры, которые являются основными типами повторений, используемых в художественном тексте. В качестве объекта исследования были взяты стихи Шавката Рахмана, а анафоры и эпифоры, встречающиеся в его поэзии, были подвергнуты анализу.

Ключевые слова: Анафора, эпифора, стилистический стиль, поэзия, эмоциональность, тон, фрагменты предложения, притяжение, междометие, дополнение, падеж, эстетическая сила, музыкальность.

THE USE OF ANAPHORA AND EPIPHORA IN SHAVKAT RAHMAN'S POEMS

Annotation: This article highlights the function of anaphora and Epiphora, which are considered the main types of repetition used in artistic text. Poems of Shavkat Rahman were taken as the object of the study, and the anaphora and epiphoras found in his poetry were subjected to analysis.

Keywords: Anaphora, Epiphora, stylistic style, poetry, emotionality, tone, sentence fragments, possessive, cross-sectional, complement, case, aesthetic power, musicality.

Badiiy matnlarda ifodali nutqni yuzaga keltiruvchi asosiy unsur takrorlar hisoblanadi. Sintaktik takrorlarda asosan nutqni ohangdor, ta’sirchan va jozibali qilish uchun foydalilanadi hamda tinglovchining tushunishiga qulaylikni yuzaga keltiradi. Tilshunosligimizda mavjud barcha uslubda qo‘llanayotgan so‘z anglatgan ma’noni tinglovchi yoki o‘quvchi ko‘z o‘ngida yanada ravshanlashtirish asosiy o‘rin tutadi. Bunda anglashilayotgan ma’noni ta’kidlab, alohida ajratib, zarur o‘rinlarda qayta qo‘llab bu samaraga erishish mumkin. Ana shu jihatga ko‘ra takror badiiy uslubda eng faol qo‘llaniladigan stilistik usullardan biridir. Badiiy asarda qo‘llangan til birliklari emotsional-ekspressivligi, ma’lum uslubiy vazifa bajarishi bilan farqlanib turadi. Bu badiiy asar matnidagi badiiy tasviriy vositalarning o‘ziga xos semantik-stilistik xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Aynan bu xuxusiyatlarni takrorning asosiy turlari sanalgan anafora va epiforada yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

“Anafora deb nomlanuvchi mazkur vosita misra, matn boshidagi so‘zning parallel holda

takroridan iborat bo‘lib, “nutq figurasi” deb ham yuritiladi¹. Anafora ba’zi manbalarda “boshlang‘ich so‘z takrori” deb ham yuritiladi. “Boshlang‘ich so‘z takrori so‘zlovchining hayajoni va diqqati qaratilgan tushunchani ko‘rsatadi va ifodalilikni oshiradi, parallelizmni mustahkamlaydi”.²

Badiiy matnlarga xos takrorlarning yana bir keng turi epifora bo‘lib, epifora so‘zlar oxirida unli yoki undosh tovushlarning, misralar, gaplar oxirida esa ma’lum bir so‘z, so‘z birikmasi yoki jumlaning takrorlanib kelishi orqali yuzaga keladi. “Tom ma’noda oladigam bo‘lsak, epifora anaforaga teskari takror hodisasiidir. Anafora og‘zaki va yozma nutqda, epifora esa asosan, yozma nutqda qo‘llaniladi”³. Shu jihatga ko‘ra, nazmiy yo‘lda yaratilgan asarlarning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi, shu ssababli epifora she’riyatda ko‘p murojaat qilinadigan takror hisoblanadi.

“Takror o‘zbek tilining badiiy uslubida eng faol qo‘llaniladigan stilistik usullardan biridir. Ammo uning boshqa funksional uslublarda foydalanishini ham inkor etib bo‘lmaydi. Chunki har bir uslubda ma’noni ta’kidlab, alohida ajratib, ba’zan bo‘rttirib ko‘rsatishga, ma’lum o‘rinlarda diqqatni jalb qilishga ehtiyoj bor. Bu ehtiyojni qondirish uchun ko‘pchilik tomonidan oson qabul qilinadigan, fikr yuritilayotgan sohada yoki kundalik turmushda faol ishlatiladigan til birliklari takroriy qo‘llaniladi”⁴ - deydi S.Karimov.

Quyida biz ham badiiy matnda ifodalangan takrorlarning eng faol turi hisoblanmish anafora va epiforaga murojaat qildik. Fikrlarimizni o‘zining xalqona ohanglari bilan xalqimizning qalbida joy olgan Shavkat Rahmon she’rlari asosida tahlilga tortdik.

Shavkat Rahmon adabiyotda lirik shoir sifatida tanilgan, xalqimiz qalbidan o‘zining takrorlanmas sh’erlari orqali joy olgan. Ijodkorning so‘z qo‘llay olish, kerakli so‘zni zarur o‘rinlarda ishlata bilish ustaligi shundaki, keng iste’moldagi so‘z va iboralarni mohirona qo‘llab o‘z tili materiallari asosida yangi so‘z va iboralar yaratib, ayrim leksik va frazeologik birliklarni umumxalq sharoitlarida o‘z asarlarida qo‘llash yo‘li bilan ularga yangi ma’no va vazifa yuklaydi.

Shavkat Rahmon she’rlarining salmoqli qismida takrorlarning anafora va epifora ma’noni kuchaytirish va emotsiyonallikni ta’minalashga xizmat qilgan deya olmamiz. Masalan, “Bir xoin xususida” va “Hasta bulbullar” she’rlarida **“Olar”** va **“O’shim ko‘rindi”** so‘zlarining misra oxirida takror holda kelishi epiforani yuzaga keltilgan va ayni shu so‘zga o‘quvchi e’tiborini yanada yaxshiroq qaratilishiga imkoniyat yaratib bergen:

Har nokas kelaru borini **olar**,

qo‘ynida to‘lg‘ongan yorini **olar**,

¹ Axmanova O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. – M.: Nauka, 1969

² Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. – Л., 1959. – С. 283

³ Sultonsaidova S., Sharipova O’. O’zbek tili stilistikasi. – T.: Yurist-media markazi nashriyoti, 2009

⁴ Каримов Суюн Амирович. Бадиий услугуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарканд. 1994. 55-bet.

qovushgan qo‘liga kulib qararu

og‘ir nigoh bilan jonini **olar.**

Begim–**O‘srim ko‘rindi,**

Sulton–**O‘srim ko‘rindi... (Sh.Rahmon.She’rlar.)**

Yoki uning qalamiga ansub ushbu misralarda eda biz anaforani yaqqol sezamiz.

Kattalarga qararding sirli,

Kattalarga tutding gulingni,

Katta bo‘ldim men bola sho‘rlik,

Kechalari poylab yo‘lingni. (Sh.Rahmon. Saylanma.)

Keltirilgan birinchi parchada gap bo‘laklaridan to‘ldiruvchi misra boshida takror holda qo‘llanib, anaforani yuzaga chiqargan. (Kattalarga). Bundan tashqari quyidagi parchada ham yuqoridagi singari misollar ko‘zga tashlanadi:

Bo‘lmasa xilma-xil harakat,

Bu qadar ummonlik qayyoqda,

Poyonsiz bir ko‘lmak bo‘lardi,

Botqoqqa do‘nardi,

Botqoqqa. (Sh.Rahmon. Saylanma.)

Keltirilgan uchinchi parchada gap bo‘laklaridan hol takrorlanib qo‘llangan. Mazkur gaglardagi anafora (botqoqqa do‘nardi, botqoqqa) nutqning ta’sirchanligini yanada oshirgan.

Kirolmasdi bu uyga o‘lim,

Bo‘lmasaydik kibirli, olg‘ir,

Bo‘lmasaydik toshbag‘ir, po‘rim

Agar odam qolmasa yolg‘iz. (Sh.Rahmon.Saylanma.)

Keltirilgan parchada kesimlar takrori anaforaning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Kesim gapning asosiy bo‘lagi bo‘lgani uchun u bilan aloqador hodisalar ham juda ko‘pdir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, anafora va epifora ijodkor aytmoqchi bo‘lgan fikri kitobxonga takror-takror uqtiradi, mazmunni anglatadi, misralarning estetik kuchini oshiradi, ularga ohangdorlik, musiqiylik bag‘ishlaydi.

Umuman olganda, anafora va epifora usuli nutqqa joziba kiritadi, shoir orzu-istiklarining hayotiyligini ta'minlaydi. Shuning uchun ushbu vositalar she'rning tashqi ko'rinishigina bo'lib qolmay, balki she'riy nutqning mazmuniga, tag ma'nolariga ta'sirchanlik baxsh etuvchi vosita ham sanaladi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. Словар лингвистических терминов. – М.: Наука, 1969
2. Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. – Л., 1959. – С. 283.
3. Sultonsaidova S., Sharipova O'. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: Yurist-media markazi nashriyoti, 2009.
4. Каримов Суюн Амирович. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарканд. 1994. 55-bet.
5. Rahmon Sh. She'rlar. – Toshkent. 1999. 3-bet.
6. Rahmon Sh. Saylanma. – Toshkent, Sharq. 1997. 16-bet.